

Iraqiy nafrat va dushmanlik sababli kelib chiqqan jinoyatlardan jabrlanganlarga eslatma.

Axborot nashri. SPb. 2016. 76 varaq.

Ushbu nashrda iraqiy nafrat va dushmanlik sababli sodir etilgan jinoyatlardan jabrlanganlar uchun o'z huquqlarini tiklash va ularga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida tavsiyalar mavjud. Ilovada yordam so'rab borish mumkin bo'lgan muassasa va tashkilotlarning aloqa va manzillari mavjud, shuningdek jabrlanganlar bilan bog'liq normativ hujjatlardan olingan qisqartmalar ham keltirilgan.

Ilovani nashrga Sankt-Peterburg inson huquqlarini himoya qiluvchi jamoat tashkiloti "Fuqarolar nazorati", Civil Rights Defenders (Shvetsiya) ning ko'magida tayyorladi.

Tiraj 1000 dona

Sankt-Peterburg inson
huquqlarini himoya qilish
jamoat tashkiloti
"Fuqarolik nazorati", 2016

Bepul tarqatiladi

Fuqarolikni nazorat qilish Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha jamoat tashkiloti irqiy nafratga asoslangan jinoyatlardan jabrlanganlarga eslatma

Sankt-Peterburg
2016

Mundarija	
So'z boshi.....	3
Eslatmaning qisqacha bayoni.....	6
Jinoyatlardan jabrlanganlarga eslatma.....	13

Ilova:

Ma'lumotlar.....	47
Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksi (parchalar).....	57

So'z boshi

Jamiyatda norozilik va nafratni qo'zg'ashga urinishlar turli sohalarda paydo bo'ladi. Ekstremistlar va terrorchilar o'z maqsadlari yo'lida turli millat, din vakillari o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqarishga harakat qilishadi. Rossiyadagi siyosiy o'zgarishlar, siyosiy vaziyat, Rossiyaning totalitar o'tmishiga qaytishiga qarshi odamlarga nisbatan, noqonuniy jinoyatlarga olib keldi.

Rossiya qonunchiligi yetarli darajada ishlab chiqilgan bo'lsa ham, uning tarkibiga «nafrat tufayli qilingan jinoyat» tushunchasi kirmaydi. Odatda, agar jinoyatlar nafrat asosida amalga oshirilgan bo'lsa, bu jinoyatni og'irlashtiruvchi holat deb hisoblanadi.

Rossiya qonunchiligidagi kamchiliklar, nafrat tufayli qilingan jinoyatlarning jabrdiydalariga, yuridik yordam olish imkoniyati cheklanganligiga olib keladi. Bunday holatlarda, odil sudlovni amalga oshirish huquqi odatda noqonuniy cheklangan, masalan, rus tilini bilmagan yoki yetarli bilimga ega bo'lмаган jabrlanuvchi tarjimon bilan ta'minlanmaydi, sudyalar jamiyatdagi ksenofobiya bilan zaharlangan bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining mahsus qismida nafrat tufayli kelib chiqqan jinoyatlarga, jumladan irqiy sabablarga ko'ra kelib chiqqan jinoyatlarga oid 13 ta modda bor, bular jinoyatni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Biroq, Sankt-Peterburg shahar sud departamenti boshqarmasi nafrat asosida kelib chiqqan jinoiy ishlarni alohida-alohida qayd etmaydi. Ichki ishlar vazirligi Sankt-Peterburg va Leningrad viloyatida ba'zi statistik ma'lumotlar to'plangan, biroq ular xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga turli sabablarga ko'ra sodir etilgan jinoyatlar sonini qayd etishgan. Shunday qilib, nafratga oid jinoyatlar haqida rasmiy ma'lumot yo'q.

Ksenofobiya va migrant fobiylarining ko'payishi munosabati bilan, bir qator hollarda, nafrat va dushmanlikka asoslangan jinoyatlar aniqlanmaganligicha qoladi va hatto yashiriladi. Jinoyat sodir etilishining asosiy sababi nafrat deb topilmaydi, jabrlanuvchilarining arizalari qabul qilinmaydi; natijada dalillar yo'qoladi, guvohlar topilmaydi, jinoyat izlari yo'q qilinadi. Bunday jinoyatlar qurbanlari huquqni muhofaza qilish idoralariga murojaat qilishdan qo'rqishadi, chunki ko'pincha tergov qo'zg'atish o'rniga, jabrlanuvchining Rossiyada istiqomat qilish qilmasligi tekshiriladi, va nafrat va adovat tufayli kelib chiqqan jinoyatlarni

Sankt-Peterburgda jinoiy ish bo'yicha statistik ma'lumot
2015 yilning 6 oyi mobaynida // Sud departamentining rasmiy sayti -
Sankt-Peterburg shahri URL-manziliga yozing: <http://usd.spb.sudrf.ru/> (tarix qaytarib olindi - 02.03.2016).

Statistika va analitik. Jinoyat holati: faktik ma'lumotlar // Ofi -
Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi, URL:
<https://mvd.ru/folder/101762/item/7207988/> (ma'lumotnomma sanasi 02.03.2016).

tekshirish o'rniga, jinoyatdan jabrlanganlar Rossiya Federatsiyasidan chiqarib yuborilishgacha ma'muriy javobgarlikka tortiladilar. Shunga qaramay, hatto bu holatda ham jabrlanuvchi barcha huquqlarini yo'qotmaydi va jinoyatni tergov qilishda ishtirok etishi mumkin. Bunday vaziyatni ko'rib chiqish uchun ushbu eslatmada alohida bo'lim ajratilgan. Shuni unutmaslik kerakki, agar jinoyat sodir etilgan bo'lsa, lekin hal etilmasa, jinoyat jinoyatligicha qolaveradi, jinoyatchi yangi jinoyatni sodir etishga qodir. Agar Rossiyada sizga nafrat tufayli qilingan jinoyat yoki dushmanlik jinoyati sodir etilsa, huquqni muhofaza qilish organlari sizning Rossiyadagi huquqiy maqomingizdan qat'iy nazar sizni jabrlanuvchi sifatida samarali va holis tekshirishni darhol amalga oshirishga majburdir.

Sizning qat'iy qaror qabul qilishingiz kelajakda neo-natsizm, ksenofobiya va ekstremizmning o'sishiga to'sqinlik qilish va huquqbuzarni jazolash va sizning huquqlaringizni himoya qilish bilan mukofotlanishi kerak.

Huquqiy yordam uchun

"Fuqarolik nazorati" inson huquqlarini himoya qilish tashkilotiga murojaat qilishingiz mumkin:

Tel. (812) 380 60 30, e. pochta jurist@citwat.net.

Eslatmaning Qisqartirilgan Hulosasi

VOQEADAN SO'NG O'ZINI QANDAY TUTISH

1. "02" yoki "112" telefon qilish;
2. Sizga shikast yetkazilgan yerlaringizni va jinoyat joyini suratga olish;
3. Tibbiy yordam uchun murojaat qilish (травм- пункт, tez yordam);
4. Iloji bo'lsa, shifokordan tibbiy hujjatlarning nusxasini olish;
5. Politsiya kelishidan oldin jinoyat joyini tegmasdan saqlash.

Jinoyat ishi bo'yicha ariza topshirishda o'zini qanday tutish

1. Eng yaqin politsiya bo'limiga kelib jinoyat haqida ariza yozish (yoki jinoyat to'g'risida og'zaki aytib berish);
2. Agar sizga tarjimon kerak bo'lsa, uni o'zingiz toping va

u bilan birga politsiya bo'limiga boring;

3. O'zingiz bilan diktofon yoki uyali telefon olib audio yozuv orqali politsiya bo'limda bo'lib o'tganlarni yozib oling;

4. O'zingizga talonni olib qo'ying, u yerda sizdan arizangizni qabul qilganning shaxsi va sana ko'rsatilgan;

5. Agar arizangizni qabul qilishdan bosh tortishsa –bo'lim boshliqini chaqiring, "02" (yoki "112") tel qiling, yoki navbatchi prokurorga shikoyat qilishingiz mumkin;

6. Politsiyachilar arizangizni qabul qilishni rad etishsa, ularni ism-shariflarini yozib oling yoki esda saqlang .

ARIZADA KO'RSATILISHI KERAK:

1. Politsiya bo'limining raqami, tuman va manzili;
2. Sizning ismingiz, familiyangiz, otangizning ismi, yashash manzilingiz, telefon raqamingiz;
3. Jinoyatning barcha holatlari, faqat taxminlarsiz faktlar;
4. Hodisaning aniq vaqtini;
5. Sizga yetkazilgan zararni tavsifi – moddiy va / yoki ma'naviy;
6. Sana va sizning imzoingiz.

AGAR ARIZANI QABUL QILISHMASA NIMA QILISH MUMKIN:

- 1. Telefon orqali "02" yoki "112" qo'ng'iroq qiling;**
2. Navbatchi prokurorga murojaat qiling;
3. Shikoyat arizangizni, buyurtma xati bilan, yetkazib berish haqidagi xabarnoma bilan pochta orqali tuman ichki ishlar boshqarmasiga yuboring, yoki to'g'ridan-to'g'ri qabulxona orqali shaxsan topshiring.
4. Shikoyat arizangizni, buyurtma xati bilan, yetkazib berish haqidagi xabarnoma bilan pochta orqali, Jinoyat protsessual kodeksining 124-moddasiga

asosan, tuman prokuroriga yuboring, yoki to'g'ridan-to'g'ri qabulxona orqali shaxsan topshiring.

5. Shikoyat arizangizni, buyurtma xati bilan, yetkazib berish haqidagi xabarnoma bilan pochta orqali, Jinoyat protsessual kodeksining 125-moddasiga asosan, sudga, politsiya organi adresi bo'yicha, yuboring, yoki to'g'ridan-to'g'ri qabulxona orqali shaxsan topshiring.

ARIZANGIZ BO'YICHA, JINOYAT ISHI OCHILMASA NIMA QILISH KERAK:

1. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etilishi to'g'risidagi qarorning nusxasini oling;
2. Jinoyat-protsessual kodeksining 124-moddasi asosida jinoyat ishini ochishdan bosh tortish to'g'risida qaror qabul qilgan prokuror darajasidagi boshqa prokurorga yoki tergov organining boshlig'iga yozma ravishda shikoyat qiling;
3. Rossiya Federatsiyasi jinoyat protsessual kodeksining 125-moddasi asosida jinoyat ishini ochishdan bosh tortish to'g'risidagi qaror ustidan sudga shikoyat qiling;

muhim: Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, bir vaqtning o'zida jinoyat protsessual kodeksining 124-moddasiga muvofiq prokurorga yoki tergov organining boshlig'iga va JPKning 125-moddasi asosida bir paytning o'zida ikki joyga shikoyat arizasi berish sud jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Bir tarafdan sud, prokurordan sizning shikoyatingizga hali javob kelmadi deb, shikoyat bo'yicha sud ishini to'xtatishi mumkin. Biroq, prokuror sizning ishingiz bo'yicha qoniqarsiz javob berishi mumkin, bu sud sizning foydangizga ish hal bo'lishiga yordam beradi.

Shunday qilib, bir vaqtning o'zida shikoyatlarni topshirish orqali siz vaqtingizni yo'qotmaysiz. Sizga har qanday vaziyatga tayyor bo'lishingizni maslahat beramiz.

Jinoyat ishi qo'zg'atilgan holatda nima qilish kerak

1. O'zingizga vasiylik orqali advokat yoki huquqshunos toping;
2. Tergov ishlarida advokat yoki huquqshunos ishtirokida qatnashing;

3. Ish materiallari bilan tanishib chiqing, tahlil qiling: tergovchi yana nima qilmadi?

4. Tergovda faol ishtirok eting: arizalar topshiring, dalillar to'plang va ularni ish materialarga biriktiring; ayniqsa ekspertiza topshirish uchun ariza berish juda muhimdir;

5. Sizni fuqaroviylar da'vogar sifatida tan olish uchun ariza bering (siz buni sudda amalga oshirihingiz mumkin);

6. Ishning borishini kuzating, tergovchini telefon qiling, agar u ishni yurgazishni istamasa unga qarshi shikoyat qiling.

SUD JARAYONIDA NIMALAR QILISH KERAK:

1. Iloji boricha, advokat yoki ishonchli vakil bilan sud majlislarida ishtirok qiling;

2. Agar sud jarayonida ishtirok eta olmasangiz advokat yoki vakilingiz sudda sizning manfaatlaringizni himoya qilsin;

3. Agar sizga tarjimon kerak bo'lsa, tarjimon so'rab ariza yozing;

4. Sud majlisida ahloq qoidalariga bo'y suning;

5. Sudning qaroriniadolatsiz deb hisoblasangiz, unga qarshi shikoyat qiling.

AGAR SIZNI ROSSIYADAN BADARG'A QILISHSA, NIMA QILISH MUMKIN:

1. Sizning manfaatlaringizni himoya qilishi uchun Rossiyadan advokat toping;

2. Rossiyadaga advokatga ishonchnoma bering;

3. Sizning qarindoshingiz, sizning ishingiz bo'yicha uni jabrlanuvchi sifatida tan olishlarini so'rab ariza berishi va advokat yordami bilano'z nomidan sizning huquqlaringizni himoya qilishi mumkin.

Yuqorida, sizning hayotiningizga va sog'ligingizga tahdid soluvchi jinoyat sodir qilinganligi tufayli, stress holatida eng qisqa vaqt ichida yo'nalish uchun qisqa bayon keltirildi.

Endi bunday vaziyatlarda o'zini qanday tutish haqida bat afsil gapiraylik.

пропустила 12 страницу с картинкой.....

VOQEADAN SO`NG O`ZINI QANDAY TUTISH KERAK:

Bugungi kunda birinchi va eng muhimi: barcha harakatlarni, faqat sizga hech narsa havf solmayotganligiga amin bo'lganingizdan keyin boshlash kerak. Jinoyatchilarni ta'qib qilishni, ularni ushslashni faqatgina kerakli ko'nikmalaringiz mavjud bo'lsa, amalga oshirishingiz mumkin. Siz uchun o'zingizning xavfsizligingizni ta'minlash va imkon qadar tez tibbiy yordam olish muhimroqdir.

1 chi ish.

Voqeani politsiyaga "02" telefon orqali, mobil telefondan - "112" yoki hududiy bo'limga xabar qiling. Telefon raqamlarni ushbu ilovadan topishingiz mumkin(29-bet) va tez tibbiy yordam bilan ta'minlanishi mumkin bo'lgan eng yaqin tibbiy muassasaga (travm-punkt) boring (agar u yerga o'zingiz bora olishingizga ishonchingiz komil bo'lmasa, shifokorlar va politsiya xodimlarini chaqiring).

muhim:

- Vrachga aytganlaringiz tergov uchun juda muhimdir;
- Shifokor sizning tibbiy hujjatingizga, qanday sharoitlarda sog'ligingizga zarar yetkazilganligi yozib qo'yishi kerak va buni politsiyaga xabar qilishi kerak;
- Iloji boricha, shifokorning ma'lumotlarini, tez yordam guruhining raqamini va yetib kelga vaqtini eslab qoling;
- Shifokordan nima bo'lganligi haqida politsiyaga xabar yuborishini so'rang;
- Barcha bayonnomalarni va tibbiy hujjatlarni, olishga va saqlab qo'yishga harakat qiling;
- Agar qotillik sodir etilgan bo'lsa, o'ldirilganni va unga yetkazilgan shikastlarni rasmga oling.

maslahat beramiz: Hech bo'lmasa hodisaning haqiqiy holatlari haqida qisqacha, bat afsil ma'lumotsiz aytib bering. Unutmang, agar

shifokorga bir narsani aytib va politsiya xodimiga boshqa narsa aystsangiz sizning guvohligingizda qarama-qarshiliklar bo'ladi va bunda shubha uyg'onib, sizga ishonmasliklari mumkin.

Mumkin bo'lgan taqdirda, tibbiy kartani fotosuratga oling yoki nusxasini oling, barcha sizga berilgan tibbiy hujjatlarni saqlab qo'ying (tibbiy tarixdan parchalar, shifokorlarga murojaat qilish, retsept bo'yicha dori-darmonlar va boshqalar).

Tanangizga yetkazilgn shikastlarni suratga olishga urinib ko'ring va uni tibbiy nuqtai nazardan ta'riflashga harakat qiling.

2 chi ish.

Militsiya xodimlari kelgunicha jinoyat joyini, jinoyat sodir qilingan holidagidek saqlang.

muhim:

- Tajovuzkorlarning ko'rinishi va sonini, tajovuz paytida aytilgan shiorlar va qichqiriqlarni hotirada tiklashga harakat qiling;
- Nafaqatjinoyatchi tomonidan qoldirilgan izlarga, balki hech nimaga tegmaslik kerak;
- Voqeа sodir bo'lgan joyni mutahassislar tekshirgunigacha tozalash mumkin emas;
- Iloji bo'lsa, jinoyat joyini rasmga oling;
- Agar guvohlar bo'lsa, ularning ma'lumotlarini va ko'rinishini yozib oling;
- Voqeа joyini eslab qoling, atrofdagi binolar, ularda kuzatuv kameralari o'rnatilgan bo'lishi mumkin, bu esa tergovda yordam beradi; ko'chaning qatnov qismida kuzatuv videokameralari o'rnatilgan bo'lishi mumkin.

Agar jinoyatchi bilan aloqa qilgan bo'lsangiz, kiyim-kechak va shaxsiy narsalar ham voqeа joyidagi vaziyatning bir qismidir. Politsiya kelguncha kiyimingizni tartibga keltirmang, ayniqsa, unga zarar yetkazilgan yoki jinoyat natijasida bulg'angan bo'lsa.

15 стр без перевода

Sizning holatingizda arizani qancha vaqtida topshirish muhimligini aniqlang. Bu sodir etilgan jinoyatga bog'liq. Qoidaga ko'ra, arizani, jinoyat sodir qilinganidan keyin qanchalik tez topshirsangiz, tergovning samaradorligi shunchalik oshadi. Arizani jinoyat izi sovumasidan topshirishga harakat qiling. Tibbiy muassasalar jinoyat haqida politsiyaga ma'lumot yuborishlariga qaramasadan, siz ham qo'shimcha holda, o'zingiz ariza topshiring. Agar jinoyat nafrat va dushmanlik ildizida qilingan bo'lsa, buni arizada ko'rsating, bu tergov ishini to'g'ri yo'ldan ketishiga yordam beradi. Sodir etilgan yoki tayyorlanyotgan jinoyat haqida telefon orqali bo'lgani kabi, militsiya bo'limida shaxsan kelib, aytib berishingiz mumkin. Tergovni jinoyat sodir etilgan joyga yaqin politsiya bo'limi oboradi, shuning uchun jinoyat sodir etilgan hududdagi politsiya bo'limiga murojaat qilgam ma'qulroq.

muhim: Vaqt tig'iz bo'lsa, siz tegishli politsiya bo'linmasini qidirmasdan, biron-bir politsiya bo'limiga, sodir etilgan yoki tayyorlanyotgan jinoyat haqida ariza berish huquqiga egasiz. Mamlakatimizda bir qancha tergov organlari mavjud: Politsiya, FSB, Tergov qo'mitasi va boshqalar. Agar siz sizga qarshi qilingan jinoyatni qaysi hokimiyat vakolatiga kirishini bilmasangiz, ishonchingiz komil bo'lmasa, ariza bilan eng yaqin politsiya idorasiga murojaat qiling va arizangizni qabul qilishlarini talab qiling. Politsiya bo'limlari kuniga 24 soat ishlaydi. Eshik qulflangan bo'lsa, qo'ng'iroqni bosing. Agar qo'ng'iroq bo'lmasa yoki eshikni ochishmasa, eng yaqin telefonda "02", yoki mobil telefonda raqamini tering va ularni ustidan shikoyat qiling. Qo'ng'iroq bepul. Uyali telefondan "112" ga hisobingizda pul b'olmasa ham qo'ng'iroq qilishingiz mumkin. Politsiya xodimi bilan suhbatni (shaxsan yoki telefon orqali)bu ibora bilan boshlash yaxshiroq: "Men jinoyat sodir etilganligi to'g'risida bayonat berishni istayman".

muhim: Politsiyaga kelgan paytingiz vaziyat faqat siz uchun tushunarli. Politsiya hodimlari soxta ayblovlar va vaziyatni noto'g'ri baholash bilan ham to'qnash kelishadi. Shuning uchun arizangizni qabul qilishdan oldin siz bilan politsiya bo'limi hodimi suhbatlashadi. Uning savollariga ravon aniq javob bering, ariza yozmaslikka ko'ndirishga harakat qilsa, ko'nmang. Chunki keyin jinoyatchilarni topolmaysiz va ariza berishga keh bo'lgan bo'ladi.

Barcha savollarga xotirjam javob berishga harakat qilingso'zlariningizni tasdiqlaydigan har qanday narsa, guvohlarning yoki sodir bo'lgan voqeа guvohi bo'lganlarni, hech bo'lmasa so'zlarining orqali bo'lib o'tganlarni biladiganlar haqida ma'lumot bering.

Sizni yolg'on xabar va yolg'on guvohlik uchun jinoiy javobgarlikga tortilishingiz mumkinligi to'g'risida ogohlantirishberishadi; buni zarur bo'lgan protsedura elementidek qabul qiling. Agar siz rus tilini yaxshi bilmasangiz, tarjimon taklif qilishlarini so'rang yoki o'zingiz toping, chunki tergov jarayonning bir qismi bo'lib, siz o'z ona tilingizda guvohlik berish huquqiga egasiz.

muhim:

- Jinoyat haqidagi arizasini sizdan har qanday shaklda olishlari shart;
- Qo'l bilan yozilgan qog'ozni olib kelishingiz mumkin, hox erkin shaklda;
- Eng muhimi arizada manzilingiz yoki yashash joyi haqida ma'lumotlar, siz bilan qanday aloqa o'rnatishi mumkinligi va nima sodir bo'lganligini haqida qisqacha bayonat keltirilgan bo'lishi kerak;
- Shuningdek siz, politsiya bo'limiga jinoyat haqida og'zaki murojaat bilan kelishingiz mumkin;
- Arizani topshirgandan so'ng, uni qabul qilinganligi yoki rad etilganligi to'grisida hujjat olishingiz kerak. U yerda arizani qabul qilgan shaxs to'g'risida ma'lumotlar, shuningdek uni qabul qilish sanasi va vaqtি ko'rsatilgan bo'lishi kerak;
- Arizani qabul qilish rad etilgan taqdirda telegramma politsiya bo'limiga va prokurorga telegramma yuboring va (yoki) pochta orqali ariza yuboriladi.

Sizdan og'zaki arizani darhol qabul qilishlari shart. Navbatchi politsiya hodimi sizning gaplaringizdan og'zaki arizangizdan protocol tuzadi . Sizni uyga, arizani pochta orqali jo'natishni taklif qilib qaytarib yuborishga haqqilari yo'q.

Politsiya bo'limida, IIV buyrug'inining 173-bandiga muvofiq,Rossiya Federatsiyasi 2013 yil 12 sentyabr, 707-son (2015 yil 23 noyabrda tuzatilgan) "Tadbirni tashkil etish bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi fuqarolarning murojaatlari Rossiya Federatsiyasi ", ariza yozish uchun qalam va qog'oz bo'lishi shart.

Sizga qarshi sodir etilgan jinoyat haqida boshqa shaxslar, huquqni himoya qilish tashkiloti va ommaviy axborot vositalari xabar qilishlarimumkin. Boshqa shaxslar yoki ommaviy axborot vositalari orqali jinoyatchilik haqida xabar berish jinoyat to'g'risidagi hisobotni, tergovni va jinoyat ishi qo'zg'atilishi uchun asos bo'la oladi.

Arizangiz qabul qilingan bo'lsa, siz raqaqamli talon beriladi. Agar sizning arizangiz qabul qilingan va ro'yxatdan o'tkazilgan deb aytishsa, lekin talon berishmasa, bu noqonuniy hisoblanadi. Talonni talab qiling va uni saqlab qo'ying.

Agar arizani to'satdan tushunarsiz sabablarga ko'ra qabul qilishdan bosh tortishsa boshliqni chaqiring, agar voqeа kechasi yoki bayram kunlari sodir bo'layotgan bo'lsa ma'sul navbatchi hodimni chaqiring. Sizga rad javobini bergen hodimlarning lavozim va familiyalarini bilib oling va yozib qo'ying. Arizani qabul qilishdan bosh tortishsa, "02"ga qo'ng'iroq qiling (mobil telefonidan "112");

politsiya bo'imiga; prokurorga telegramma yuboring (telegrammani audioyozuv orqali yuborish ham mumkin).

maslahat beramiz:

Bunday vaziyatda siz uchun imkon qadar xotirjam bo'lishga harakat qiling va ism-shariflarni, lavozimlarni esda saqlab boring; O'zingiz bilan diktofon yoki mobil telefon olish va audioyozuv olib borish tavsiya qilinadi .

пропуск 21 стр

ARIZADA KO'RSATILISHI KERAK:

Vaqt imkon beradigan bo'lsa, batafsil bayonot tuzish yaxshiroq: Bayonotingizga qarab jinoyatning mavjudligi va jinoiy ish qo'zg'atilishiga asos borligi aniqlanadi. Agar vaziyat sizni voqeа sodir bo'lganidan keyin darhol politsiya bilan bog'lanishga majbur qilsa huquqshunos bilan bog'lanishga vaqt bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun bilganingizcha yozing(yoki ayting, og'zaki izohda).

Og'zaki bayonotni muayyan shaklda so'zlaringiz orqali protokolga politsiya xodimi kiritib boradi; Sizning vazifangi voqeani bog'liqligini buzmasdan aytib berish. Og'zaki bayonna maProtokolga yoziladi va siz va sizning arizangizni qabul qilgan xodim tomonidan imzolanadi.

Yozma ariza siz murojaat qilayotgan joyning manzilidan boshlanishi kerak. Politsiya bolimining raqami va tumanini, manzilni ko'rsatish kifoya. Boshliqning familiyasi va unvoni bilish va ko'rsatish muhim emas.

Arizada hodisaning tavsifi bo'lishi kerak, jinoyat aynan nimadan iborat edi va sizning ma'lumotlaringiz, siz bilan qanday bog'lanish mumkin. Jinoyatning yozma bayonotida sizning imzoingiz bo'lishi kerak.

Bayonotning matnida bo'lib o'tganlarni baholashdan qoching, faqat faktlar bilan tushuntiring. Albbatta, voqeа sodir bo'lgan joyning aniq manzili va hodisaning aniq vaqtini ko'rsatish kerak. Agar siz manzil va vaqtni aniq ko'rsata olmasangiz (bunaqasi bo'lib turadi), to'qib chiqarish kerak emas. Faqat eslaganlaringizni yozing.

Albatta, jinoyat sodir bo'lishidan qanday zarar ko'rganligini ko'rsatib o'ting.

Zarar moddiy bo'lishi mumkin – bunaqa holatda nima o'g'irlanganligini, nimaga zarar yetkazilganligini v.h.k sanab o'tish kerak. Yetkazilgam zarar miqdorini ko'rsatish va uni rublda baholah kerak. Agar hozirda zararni aniq

baholay olmasangiz, uni tahminiy o'lchamini ko'rsating va keyinchalik aniq baholashingizni yozib o'ting.

Zarar jismoniy bo'lishi mumkin – unda aynan qaysi harakatlar tufayli sizning sog'ligingizga zarar yetganini yozish kerak (agar urishgan bo'lsa, aynan qayerga urdi, agar jinoyatchi nima bilandir urgan bo'lsa, aynan nima bilan urdi qayerda va qanday izlar qoldi: ko'karishlar v.h.k), og'riq qay darajada kuchli edi,tibbiy yordamga murojaat qildingizmi, yordam ko'rsatildimi, davolandingizmi va/yoki davolanyapsizmi. Bundan tashqari ,davolanishga sarf qilingan mablag'ni ham aytib o'tishingiz mumkin. Hatto yetkazilgan zarar haqidagi ma'lumotlar uyatli ko'rinsa ham, ularni belgilashda ikkilanmang.

Agar sog'ligingiz va mulkingizga zarar yetkazilmagan bo'lsa ham bu sizning, siz jabrlanuvchi emasligingizni anglatmaydi. Zarar, ma'naviy ham bo'lishi mumkin. Jins, irq, millat, til, kelib chiqish, diniy qarashlar, shuningdek, boshqa ijtimoiy guruhga mansubligingiz sababli sizning qadr-qimmatingizni kamsitish bilan bog'liq bo'lgan qanday his-tuyg'ularni boshingizdan kechirganingizni yozing.

muhim:

Agar biron narsani unutgan yoki noto'g'ri ko'rsatgan bo'lsangiz, qo'rqmang. Esingizda bo'lsin, sizni hali bir necha bor so'roq qilishadi(ish boshlashdan oldin, tergov payti va sudda) va siz birinchi marta aytib bergen hikoyangizni to'ldirishingiz mumkin, lekin qo'shimchalar bir-biri bilan zid bo'lmasligi kerak.

25-----

ARIZANGIZNI QABUL QILISHMASA NIMA QILISH KERAK:

Hatto nima uchun ular sizning arizangizni qabul qilmasliklarini aniq tushuntirishsa ham, bu boshqa hech qayerga murojaat qilib bo'lmasligini anglatmaydi. Qonunga ko'ra siz e'tiroz ustidan prokurorga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egasiz, bular jinoyat protsessual kodeksining 124 va 125-moddalarida nazarda tutilgan.

Agar rad javobi ish kunida kelsa, darhol prokuratura organiga o'ting: tuman prokuraturasida xizmat ko'rsatuvchi navbatchi prokuror har kuni, soat 9 dan 18 soatgacha qabul qiladi. Siz navbatchi prokurorga e'tirozingizni og'zaki shaklda bildirishingiz mumkin.

Agar, sizga hududiy politsiya bo'limida rad javobini berishsa, siz tuman ichki ishlar boshqarmasiga shikoyat qilishingiz mumkin. U yerda fuqarolardan shikoyatlarni qabul qiladigan navbatchi ishchi yo'q, shuning uchun siz tuman ichki ishlar boshqarmasining boshlig'i yoki uning o'rribosarining qabuliga, ularning qabul qilish soatlarida borishingiz kerak. Sizga rad javobini bergen hodimlarning nomlarinini, unvonini, lavozimini eslab qolishga harakat qiling, ularni shikoyat arizasida ko'rsating.

Agar sizga tunda, bayram kunlarida yoki dam olish kunlarida rad javobini berishsa, siz bo'lsa zudlik bilan jinoyat izlarini izlash va jinoyatchini qidirish kerakligini his qilsangiz, telefondan "02" yoki mobil telefondan "112" raqamlariga qo'ng'iroq qiling, jinoyat sodir etilganligini, siz jabrlanuvchililingizni va sizni politsiya bo'limiga kirgizishmayotganliklarini yoki siz bilan gaplashishni istashmayotganliklarini ayting.

Agar sizning urinishlaringiz muvafaqqiyatga uchramasa, umidsizlikka tushmang. Unutmang, siz o'z huquqlaringizni himoya qilishga qaror qilgansiz.

Arizani yozing va uni pochtadan, buyurtma xati orqali politsiya yoki prokuraturaga yetkazib berish xabarnomasi bilan (lekin rahbarlarga emas, bali past darajadagilarga), jo'nating. Masalan: General prokurorga yoki ichki ishlar vaziriga emas, balki tuman prokuroriga, yoki tuman ichki ishlar boshqarmasiga yuboring (yuqori organlardan sizning arizangiz baribir pastga yuboriladi va bu jarayon ko'p vaqt ni oladi).

Rasmiy organlarga yuboriladigan har qanday murojaatlarni pochtadan, buyurtma xati orqali, yetkazib berish xabarnomasi bilan yuborgan ma'qul, shunda shunda sizning qo'lingizda haqiqattan murojaat qilganingizni tasdiqi qoladi. Siz shuningdek, arizani, oddiy pochtadan yuborishingiz yoki ayrim prokuratura idoralarida mavjud maxsus qutiga solishingiz mumkin, yoki qabulxonadagi navbatchi prokurorga berishingiz mumkin (tuman prokurorini qabulini kutib o'tirish shart emas; sizning shikoyatingizni navbatchi prokuror qabul qilishga haqli, u baribir keyin tuman prokuroriga shikoyatingizni topshiradi. Arizani topshirishda nusxaga qo'l qo'yishlarini va arizani qabul qilgan shaxsning ism-sharifini so'rang. Ariza topshirilganligi haqida xabarnoma olganingizdan so'ng, siz vakolatxona idorasiga qo'ng'iroq qilib, kirish xatining raqamini, kimga ko'rib chiqish uchun berilganligini bilib olishingiz kerak. Iloji boricha tergovchi bilan bog'laning va ushbu ariza bo'yicha qanday qaror qabul qilinganligini bilib oling. Agar sizga hali ham, jinoyat ishi bo'yicha arizangizni qabul qilishdan va tergov ishini olib borishdan bosh tortishsa, politsiya xodimlari tomonidan, sodir etilgan jinoyatni yashirilganligi to'g'risida prokuraturaga shikoyat qilishingiz mumkin.

ARIZANGIZ BO'YICHA JINOYAT ISHI OCHILMASA NIMA QILISH KERAK

Bunday bo'lishi ham mumkin: sizning arizangiz qabul qilishdi va ro'yxatdan o'tkazishdi, ammo keyin jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qililishdi.

Qonun, uch kun ichida arizangiz bo'yicha qaror qabul qilinishi kerakligini aytadi. Bu muddat o'n kungacha yoki ayrim hollarda, 30 kungacha uzaytirilishi mumkin.

Qarorlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

-jinoiy ish qo'zg'atilishi to'g'risida;

-jinoiy ish qo'zg'atishni rad etish to'g'risida;

-jinoyat ishi haqidagi xabarni boshqa organga o'tkazilishi to'g'risida - sud yoki boshqa bo'limga.

Ohirgi holda, qonun politsiya jinoyat izlarini saqlab qolish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rishni talab qiladi. Agar ushbu vaqt ichida sizni qaror haqida xabardor qilishmasa, arizangizning taqdiri bilan o'zingiz qiziqib ko'ring. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorning nusxasi u berilgan kundan e'tiboran 24 soat mobaynida sizga yuborilishi kerak. Agar siz bu xabarni olsangiz, umidsizlikka tushmang. Siz ushbu qarorga nisbatan e'tiroz bildirish huquqiga egasiz. E'tiroz uchun jinoiy ish qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarordagi rad etish sabablarini yuborishlarini talab qiling (Agar uni olmagan bo'lsangiz).

Qayerga va qanday shikoyat qilish kerak:

Ishni qo'zg'atish rad etilganligi ustidan shikoyatni faqat yozma ravishda, jinoyat protsessual kodeksining 124-moddasi asosida tergov organining boshlig'iga yoki shu darajadagi prokurorga berish kerak. Shunday qilib, agar sizga tuman politsiyasida rad etishsa, ularni ustidan tuman prokuroriga shikoyat qilasiz. Prokuroring familiyasini bilish shart emas; shikoyatda N tuman prokuroriga deb murojaat qilish kifoya; o'z shaxsiy ma'lumotlaringizni, manziligidizni va jinoyat haqidagi xabarni qayd etishni unutmang. Nima sababdan qabul qilingan qarorga qo'shilmasligingizni erkin tarzda bayon qiling, sizning fikringizcha, tergov organi ishning holatini aniqlash uchun qanday choralarни ko'rmadi.

Prokuror shikoyatni olganidan keyin, uni uch kun ichida ko'rib chiqishi kerak. Shikoyatni pochta orqali yuborgan bo'lsangiz, kutish vaqtiga shikoyat va javobning pochta orqali borib kelish vaqtini qo'shing .

Agar viloyat prokurori sizni rad etsa, hamma narsa tugagan deb o'ylamang. Siz shikoyat qilishni davom ettirishingiz va jinoiy ish qo'zg'atishingizni talab

qilishingiz mumkin. Tuman prokurorining qarorining ustidan yuqoridagi shahar prokuraturasiga murojaat qilish mumkin. Agar siz shahar prokururasining javobidan qoniqmasangiz, siz Rossiya Federatsiyasi Bosh prokururasiga yozishingiz mumkin.

Siz, shuningdek, prokuraturaga emas, balki sudga jinoyat protsessual kodeksining 125-moddasi asosida shikoyat qilishingiz mumkin, bu hol ba'zi hollarda samaraliroqdir; Qonun sizga tanlov huquqini beradi. Suddan, shikoyat bo'yicha o'z nuqtai-nazaringizni shakllantirish uchun tanishishingiz mumkin bo'lgan jinoyat hisobotini tekshirish uchun materiallar talab qilishini so'rang.

Sudga shikoyat qilish masalalari Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumining 2009 yil 10 fevraldagi " sudlar tomonidan shikoyatlarni jinoyat protsessual kodeksining 125-moddasiga asosan ko'rib chiqish amaliyoti to'g'risida "gi 1-sonli qarorida ko'rib chiqilgan.

muhim:

- Shikoyat qilishni yuqori organlardan emas, "past"dagilardan boshlang, chunki bevosita Bosh prokuraturada shikoyatni faqat barcha quyo tizimlarsizga javob bergen taqdirda ko'rib chiqadi. Aks holda shikoyatingiz "pastga" yuboriladi;
- Agar siz prokuraturaga shikoyat yozib uni jo'nata olish qo'lingizdan kelgan bo'lsa ham, sudga shikoyat qilishish uchun professional advokatga murojaat qilgan ma'qulroq. Sudga yoziladigan shikoyatlarning mazmuniga ham, tuzilishga ham qattiqroq talablar qo'yiladi va maxsus ta'limga ega bo'limgan odam buni uddasidan chiqa olmasligi mumkin;
- Siz va advokatingiz tekshiruv materiallari va tergov organida jinoyat ishini qo'zg'atishdan bosh tortish uchun asoslar bilan shunchaki va sudda shikoyat berilyotganida tanishish huquqiga ega.

34----

JINOYAT ISHI QO'ZG'ATILGAN HOLATDA NIMA QILISH KERAK

Agar jinoyat ishi militsiyaga murojaat qilganingizdan keyin darrov qo'zg'atilsa, siz terfov jarayonida ishtirok etishingiz kerak bo'ladi. Avvaliga sizni navbatchi tergovchi yoki tergovchi so'roq qiladi. Arizangizni qabul qilgan militsionerning savollaridek bir xil savollarni takrorlashsa hayron bo'lmaning.

Guvohligingizni takroriy ko'p marta qaytarishingiz kerakligiga ko'niking. Bu huquqiy jarayonning achchiq haqiqati.

Sizni tergovchining yoniga chaqiriq xati yoki telefon orqali chaqirishlari mumkin.

Jabrlangan ham, guvoh ham so'roqqa advokati bilan kelishga haqli. Advokatning to'lovi faqatgina siz emas, balki qarindoshlaringiz yoki huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Advokatning vakolatlari kafolat orderi va advokatligi haqidagi guvohnoma bilan tasdiqlanadi. Tergovchi advokat bilan kelishuvni talab qilishi yoki advokat hizmatiga haq to'laydigan shaxs haqida ma'lumot so'rash huquqiga ega emas.

Tergovchi bilan muloqotda bo'lganiningizda, hatto jabrlanuvchi yoki guvoh bo'lsangiz ham, siz bilan maslahatlashadigan va sizga huquqiy yordam bera oladigan shaxs bo'lgani ma'qul.

muhim:- Advokatni tanlashda, siz yashash joyingiz yoki voqeа joyingiz manzili bo'yicha bog'lanishingiz shart emas. Sizning advokatingiz yoki advokatlik byurosi qayerda joylashganligidan qat'i nazar, u bilan shartnoma tuzish huquqiga egasiz. Advokat jabrlanuvchini himoya qilishga rozilik bergenidan keyin himoyadan voz kechishga haqli emas;

-Bepul huquqiy yordam ko'rsatilishi kerak bo'lgan fuqarolar toifasiga kirish kirmasligingizni bilib oling (nogiron, kam ta'minlangan, balog'atga yetmagan bolalar), sizning ishingiz muhim va jamoat ahamiyatiga ega bo'lgan holda, advokat hizmatlarini to'lashi mumkin bo'lgan huquqlarni himoya qilish jamoat tashkilotlari bilan bog'laning. "Fuqarolik nazorati" inson huquqlarini himoya qilish tashkiloti irqiy adovat va dushmanlik sababli jinoyat jabrdiydasiga aylanganlarga huquqiy yordam ko'rsatadi;

-Jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin, sizni jabrlanuvchi sifatida tan olishlari kerak. Tergovchi qaror qabul qiladi, uni sizga e'lon qiladi, ushbu holatdagi sizning huquqlaringizni tushuntiradi;

-Yodingizda tuting: siz jabrlanuvchisiz, tergov siz va sizning himoyangiz uchun olib borilyapti, shu jumladan gunohkorlarni jazolash uchun ham. Jabrlanuvchining huquqlarini faol ravishda amalga oshiring – tergov jarayonida iloji boricha passiv bo'lmaning, va advokat yordami bilan ish bo'yicha dalillarni yig'ing va taqdim eting.

-Sizni tergovning borishi bhaqida xabardor qilishlari, sizning ishtirokingiz bilan olingen barcha protokollar bilan tanishish imkoniyatini berishlari shart, bu haqida so'rang;

-Siz o'zingizning ona tilingizda guvohlik berish uchun tarjimondan bepul foydalanishingiz mumkin;

-Siz tergovchining ruxsati bilan iltimosnomangiz bo'yicha olib boriladigan tergov harakatlarini ishlab chiqishda ishtirok etishga haqingiz bor;

-Ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning do'stlari yoki qarindoshlari sizga tahdid qilishsa, darhol tergovchini xabardor qiling: bu ayblanuvchi uchun ko'rila'digan chora tadbirlarni kuchaytirishga va hattoki qamoqqa olishga, shuningdek, siz uchun guvohlar va jabrlanuvchilarni himoya qilish dasturi bo'yicha maxsus chora-tadbirlar ko'rishga asos bo'lishi mumkin;

-Sizga dalillarni taqdim etish huquqiga egasiz (ma'lumotlar va hujjatlarni ilova qilish, guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza o'tkazish uchun ariza berish va hokazolar).

muhim: -Ekspert xulosasi - tibbiy (yetkazilgan tan jarohatlari bo'yicha), ijtimoiy-gumanitar (matnlar va qo'lga kiritilgan adabiyotlar bo'yicha), balistik (qurol bo'yicha) va h.k. - nafrat va dushmanlikni kuchaytirish holatlarining asosiy dalillaridan biri;

-Qabul qilingan narsalar bo'yicha ekspertiza tayinlashni talab qiling, qurol, adabiyot, afishalar, varaqalar, ayblanuvchilardagi tatuirovkalar, voqeа joyidagi yozuvlar – jinoyatni nafrat va dushmanlik asosida uyushtirilganligini isbotlovchi barcha dalillar;

-Sizning advokatingiz guvohlardan tushuntirish olish, tergov va sud davomida ularni so'roq qilishda qatnashishi huquqiga ega;

-Dastlabki tergovning oxirida texnik vositalar (fotokopiler, fotoapparat) yordamida ishning barcha materiallari bilan tanishib chiqishingiz va dalillarni taqdim etish orqali tergovni to'ldirishingiz mumkin.

